

INGLIZ TILI DARSLARIDA SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHDA
INTERFAOL O'YINLARDAN FOYDALANISH

Mamatova Gulhayo Komiljon qizi

Namangan Davlat Universiteti, Magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirishda o'yinlarning qanchalik muhim va samarali ekanligini aniqlashga qaratilgan. O'qituvchilarning o'quvchilar qiziqishini yaxshilashga bo'lgan urinishlaridan biri bu ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatishdir. O'yinlar orqali o'rganish jarayoni o'zoro ingliz tili muhitiga kirishishni taminlaydi va bunda o'quvchilarning so'z yodlash qobilyati rivojlanishi kutiladi. O'yinlar orqali o'rganishning ko'plab foydali tomonlari mavjud. Birinchidan, tabiatan qiziqarli va quvnoq o'yinlarga asoslangan darslarni o'quvchilar maroq bilan qabul qilishadi. Ikkinchidan, o'yinlarning qiziqarli ekanligi sabab, o'quvchilarda muayyan narsalar yoki mavzularga katta qiziqish uyg'onadi.

Tayanch tushunchalar: o'yinlarning ishlatilishi, o'quvchilar qiziqishlarini oshirish, o'rganish jarayoni, mavzular, samarali.

Kirish: Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsad o'sha tilda bermalol muloqot qila olishdir. Chet tillarni o'rgatish va o'rganish uzoq va mukammal jarayon. U kishidan muntazam mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. O'g'zaki nutq malakalarni o'stirish uchun chet tillarni o'qitish jarayonida har xil interfoal o'yinlardan qo'llash chet tilini o'rganishni zerikarli emas, aksincha qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantirishi aniq. Interfoal o'yinlar tilni o'rganuvchilar o'zlarini ancha erkin tutishlarini hatto uyatchan o'quvchilarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi interfaol o'yinlarni ayniqsa grammatika va so'z boyligini ortirish uchun qo'llash samaralidir. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'yindan ko'zlangan maqsadni o'yin qoidalarni aniq

tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lashi kerak.[1;p3] Ushbu usulubiy tavsiyalar to'plamiga kirgan interfaol o'yinlar maktabgacha ta'lim yoki maktab o'quvchilariga o'yinlar orqali dars o'tish og'zaki nutq orqali foydali manba bo'lib xizmat qiladi, o'yinlarni qo'llash bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berilgan. Darslarni mashg'ulotlar orqali o'rgatish qulay va qiziq bo'lib, bolalarni darsga jalb qilishga ko'mak beradi. Maqolada ingliz tili darslarida foydalanish uchun o'yinlarning bir nechta misollari keltirilgan. Ingliz tili darslarida ushbu interfaol usullardan foydalanish yanada foydali va mazmunli. Darslarda o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan faol o'yinlardan foydalansangiz, darsda qo'yilgan maqsadga erishishingiz mumkin. Chet tilini o'rgatish qiyinligini bilamiz. Shuning uchun ham chet tilini o'rgatishda interfaol metodlarning o'rni katta, deb o'ylayman. Chunki bu o'quvchilarni rag'batlantirishga va o'z qiziqishlarini to'liq darslarga qaratishga majbur qiladi. Interfaol usullarga o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar, mashg'ulotlar kiradi. Chet tilini o'rganishdan asosiy maqsad chet elliklar bilan muloqot qilish, shuning uchun biz birinchi navbatda muloqot qobiliyatimizni oshirishimiz kerak. Buning uchun bizga interfaol usullar kerak, darslarimizda turli o'yinlar o'ynashimiz mumkin, bu o'quvchilarning barcha ko'nikmalarini oshiradi. Shuningdek, o'yinlar o'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirish ko'nikmalarini oshiradi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Aksariyat o'quv materiallari o'yinlardan iborat emas. Menimcha, agar sinfda o'yinlar bo'lsa, yangi mavzuni tushuntirish oson bo'ladi, chunki o'quvchining kayfiyati yaxshi bo'ladi. Talabalar kulgili narsani topsalar, ularning o'rganishlari yanada qiziqarli bo'ladi va ularning motivatsiyasi ortadi. Quyidagi qiziqarli o'yinlar ingliz tilini o'rgatishda juda ham samaralidir:

1. Guess my job.

Maqsadi: turli kasblarni va ularga tegishli so'zlarni mustahkamlash.

Kerakli vositalar: kasblar nomi yozilgan kartochkalar to'plami.

Har xil kasblar nomi yozilgan kartochkalar konvertga solinadi. Guruhdan ko'ngilli o'quvchi chaqiriladi va bitta kartochka tanlanadi. Galma-gal o'tirgan

o`quvchilar kartochkadagi yashiringan kasb qaysi ekanligini toppish uchun faqatgina umumiy (Yes/No questions) savollarni so`raydilar. Kartochkani ushlab turgan o`quvchi faqat “ Yes” yoki “No” deb javob berishi mumkin. Kasb nomini birinchi bo`lib topgan o`quvchi o`rtada turgan o`quvchi o`rniga chiqadi va keying kartochkani oladi . O`yin shu tariqa davom etadi.[1;p20]

2. “TENNIS” o`yini.

Maqsadi: O`quvchilarning tezligini oshirish.

O`yin xuddi zanjircha o`yiniga o`xshash bo`lib u faqat tanlangan mavzu doirasida bo`ladi va so`z yakuniga qarab tugallangan harfga yangi so`z aytishi lozim bo`ladi misol uchun mavzu :vegetables” bo`lsa shu mavzudan chetlashmagan holda bo`ladi. Birinchi ishtirokch ”potato” desa ikkinch ishtirokchi esa oxirgi harfi ‘o`ga topishi kerak bunga “onion” deb javob beradi va shu tariqa o`yin davom etadi. O`yin davomida to`xtab qolgan o`quvchi 5daqqa ichida javob qaytarmasa o`yindan chetlashtiriladi va qolgan o`quvchilar bilan o`yin davom etadi.o`yinni guruh bo`lib o`ynash o`quvchilar uchun qiziqarli bo`ladi yani 5 kishidan ortiq guruh bo`lib o`ynash.

Bu o`yinda mavzuni o`zgartirish orqali ham o`ynash mumkin [2;p78]

3. How is your vocabulary

Maqsad:O`quvchilarnin so`z boyligini tekshirish

Til o`zlashtirish darajasi: o`rta va yuqori

Kerakli vositalar: qogoz va ruchka

Har bir o`quvchi qogoz va ruchka tayyorlagach, o`yin bopshlanadi.

O`qituvchi ingliz alfavitini biror harfini talaffuz qiladi.O`quvchilar esa shu harf bilan boshlanadigan so`zlarni yozadilar.O`quvchilarga 3 daqiqadan ortiq vaqt berilmaydi.shu vaqt oralig`ida eng ko`p so`z topgan o`quvchi g`olib bo`ladi.[1;20]

4. Crazigrams

Maqsad:O`quvchilarni tassavuriy ko`nikmalarini oshirish

Til o`zlashtirish darajasi: o`rta va yuqori

Kerakli vositalar: qog`oz va ruchka

Har bir talaba qog'oz va qalam olib unga 10ta hoxlagan harfini yozadi va sherigiga uzatadi. Sherigi esa har bitta harfga so'z topib manoli gap tuzishi kerak ma'noli chiqmasa ham bo'laveradi chunki o'yinning nomi Crazigram. Misol uchun; M,R,T,S,A,N,G,D,F,E,Mary really tired, shocked, angry, naughty girl, dangerously famous economist.

4. Bananas

Maqsad va sharti: **Wh** so'roq(maxsus so'roq)formasini amaliyotda tadbqiq etish.

“it” bo'lishi uchun bir o'yinchi tanlanadi yoki xoxishi bilan chiqadi. Qolgan o'yinchi talabalar esa Wh-question' formasida “it”ning shaxsiyatiga tegilshi har xil savol berishlari kerak. Javob beruvchi hamma savollarga “Bananas” deb javob berishi lozim. O'yinning maqsadi “it” kuldirish kimning savoli javob beruvchining kulishiga sabab bo'lgan, o'sha talaba “it” bo'ladi va shu tariqa o'yin davom etadi.

Savollar shunday bo'lishi kerakki, ularning javobi kulgili bo'lishi kerak. Bu o'yida

“yes” yoki “no” questions ni berish taqiqlanadi. Faqat “Wh-question” maxsus so'roq gap bo'lishi shart. Ushbu o'yin mashhur va qiziqarli bo'lganligi sababli, talabalar qayta- qayta o'ynashni istashlari mumkin. Shunday ekan, “Bananas”ning o'rniga boshqa so'zlarni ham ishlatsa bo'ladi. Bunda o'tilgan narsa yoki hayvonlar nomi bilan ham o'zgartirib ham o'yin qiziqarli bo'ladi.

5. Animal squares

Maqsad : hayvonlar nomlarini takrorlash

Til o'rganish darajasi: barcha uchun

Kerakli vositalar: hayvonlar nomi berkitilgan kartochkalar, qalam va qog'oz

O'quvchilar o'zlariga berilgan hayvon nomi berkitilgan kartochkalarga qaramasdan o'qituvchi tomonidan berilgan tarifni eshitib, qaysi hayvon ekanligini topishi kerak. Hayvonlar turi 25ta yoki undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Qaysi o'quvchi ko'p topishiga qarab g'olib aniqlanadi.

Ushbu o'yinni, mevalar, sabzavotlar, shahar, davlatlar, tana a'zolari kabi mavzularga ham qo'llash mumkin

“O'yinlardan foydalanishning ko'p sabablari bor. O'yinlar shunchaki vaqtni sarflaydigan mashg'ulot emas. Balki ular katta tarbiyaviy ahamiyatga ega».[3;p65]
Ko'pgina til o'yinlari o'quvchilarni to'g'ri shakllarni o'rganish haqida o'ylash o'rniga, tildan foydalanishga majbur qiladi.

Garchi bizning o'yinlarimiz qisqa mashg'ulotlar bo'lsa-da va ular bo'shashgan, yoqimli ta'lim muhitini yaratish uchun qo'llanilgan bo'lsa-da, biz sinfda o'yinlar shunchaki qiziqarli bo'lishini xohladik.

O'yinlar, shuningdek, o'rganish va o'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirishi kerak. Shuning uchun o'yinlar orqali lug'atni o'rganishda muvaffaqiyatga erishish muhimdir. O'yinlar ko'pincha qisqa isinish mashg'ulotlari sifatida yoki dars oxirida biroz vaqt qolganda ishlatiladi.

NATIJA

Biz bilamizki, til o'rganish qiyin ish bo'lib, ba'zan uni o'rganish jarayonida anchagina muommolar yuzaga keltirishi mumkin. Tilni tushunish va manipulyatsiya qilish uchun doimiy harakat talab etiladi. Yaxshi tanlangan o'yinlar bu jarayonda muhim sanaladi, chunki ular o'quvchilarga dam olish va shu bilan birga til ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi.

O'yinlar til o'rganishda juda foydali, chunki ular qiziqarli va shu bilan birga qiyin. Bundan tashqari, ular real kontekstda va o'quvchilar uchun oson bo'lgan tildan foydalanadilar. Ular, shuningdek, hamkorlikni rag'batlantiradi va oshiradi. O'yinlar barcha til ko'nikmalarida amaliyotda qo'llashni o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin va amaliyotda qo'llanilishi mumkin.[4;p55]

Qaysidir ma'noda, o'quvchilar o'zlari bilmagan ravishda tilni egallaydilar, chunki ularning butun diqqati shu faoliyat bilan shug'ullanadi. O'yinlar va muammolarni hal qilish faoliyati o'rtasida katta o'xshashlik mavjud. O'yinlar orqali, odatda, raqobat va g'alabaga e'tibor qaratiladi, ular shuningdek, muammolarni hal qilishning ba'zi turlarini talab qiladi. O'yinlar singari, muammolarni hal qilish faoliyati ham kommunikativ maqsadga ega. Talabalardan xulosaga kelish uchun mavjud dalillardan foydalanishni talab qiladigan savollar va o'quvchilarni ingliz tilini tushunishlarini qiziqarli qilib ko'rsatish orqali til o'rganishga yordam

beradigan mantiqiy muammolarni hal qilish faoliyatining turlari bo'lib, ular real mavzuga asoslanadi. Xayoliy vaziyatlar va ular muammolarga yechim topishlari kutiladi. O'yinlar va muammolarni hal qilish faoliyati sifatida barcha sinfdagi va darajadagi o'quvchilar uchun ishlatilishi mumkin[4;p56].

Xulosa :

Xulosa qilib shuni aytish joizki bu o'yinlarni bolalarning saviyasi yoki yoshiga qarab osonlashtirish yoki qiyinlashtirishimiz ham mumkin. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi turlich bo'lib bu o'yinlar orqali diqqatni jamlash, so'z boyligini osirish, tezkorlik,aqililik,ziyrak asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtib,yodda saqlab qolishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Dehqonova D .T .Ingiliz tilida interfaol o'yinlar.Samarqand.2013.
2. Kim L. S. "Til sinfi uchun ijodiy o'yinlar". Angliya 1995 yil.
3. Elizabeth Claire "ESL o'qituvchisi faoliyati to'plami" AQSh 1998 yil.
4. Sultonova M. O ,Ergasheva M. A. Ingliz tilini o'qitishda o'yinlarning o'rni. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli 8-son ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya